



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 18-iyul, shanba,
63 (24.243)-son

O'zbek xalq
maqoli

Haqiqatning
yuzi -
yorug',
qo'li -
uzun

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



info@zarnews.uz

MUSTAQILLIK

35



YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB,
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!



700 МИЛИАРД СЎМЛИК ШАРТНОМАЛАР ТУЗИЛГАН КЎРГАЗМА

Жомбой туманидаги "SOF EXPO Samarkand" кўргазмалар мажмуасида транспорт йўналишида миллий sanoat занжири кўргазмаси ўтказилди.

Иккинчи бор ўтказилган кўргазмада республикамиздаги маъкур соҳада фаолият юритаётган 80 дан ортиқ тадбиркорлик ва хизмат кўрсатиш субъекти ўз маҳсулотларини намойиш этди. Бугунги кунда транспорт тизимида 12,8 миллиард долларлик 36 та инвестиция лойиҳаси амалга оширилмоқда. Таҳлилларга кўра, ушбу лойиҳаларда 407,3 миллион долларлик маҳсулотларни маҳаллийлаштириш салоҳияти mavjud. Айнан шу имкониятларни амалий лойиҳаларга айлантириш мақсадида кўргазмада транспорт соҳаси учун мўлжалланган минглаб маҳсулотлар, бутловчи қисмлар, инновацион ишланмалар ва технологик ечимлар намойиш этилди. Йирик давлат буюртмачилари эса ўзларининг mavjud ва истиқболдаги харид эҳтиёжларини тақдим этди. Тадбир аввалида вилоят ҳокими А.Бобоев, Саноат кооперацияси ва давлат харидлари агентлиги директори Бахтиёр Ҳайдаров кўргазманинг аҳамияти, юртимизда ишбилармонларга яратилаётган имкониятлар ҳақида сўз юритди. - Асосий мақсад ишлаб чиқарувчилар учун янги бозор яратиш, маҳаллий корхоналарни йирик sanoat занжирига олиб кириш ва

юқори қўшилган қийматни мамлакат ичида шакллантириш, - деди Б. Ҳайдаров. - Шу боис, маъкур кўргазмада Ўзбекистондаги йирик транспорт компанияларининг sanoat салоҳияти, эҳтиёжлари ва стратегик режалари тақдим этилмоқда. Импорт қилинаётган ускуна, бутловчи қисм ва материалларни маҳаллийлаштирган тадбиркорлар билан давлат хариди субъектлари бўлган транспорт корхоналари ўртасида узоқ мuddatli кооперация шартномалари имзолаш имконияти яратилади. Тадбирда 30 дан ортиқ давлат буюртмачилари, харид операторлари, сертификатлаштириш, экспертиза ва стандартлаштириш ташкилотлари ҳамда тижорат банклари ҳам иштирок этди. - Корхонамизнинг янги автобуси кўпчиликка манзур бўлмоқда ва 12 тонна юк кўтариш қувватига эга бўлган автотранспортга ҳам қизиқиш юқори, - дейди "Sam AVTO" корхонаси савдо бўлими менежери Моҳинур Шаропова. - Корхонамизда ишлаб чиқарилаётган "пикап" автомобилларимизнинг 12 фоизгача, юк автомобиллари ва автобусларнинг 30 фоизгача бутловчи қисмлари маҳаллийлаштирилган. Кўргазма якунларига кўра, 80 дан ортиқ ҳамкорлик меморандуми имзоланди, давлат харидлари орқали қарийб 10 мингдан ортиқ шартнома тузилди ҳамда 714 миллиард сўмликдан зиёд шартномалар расмийлаштирилди.

**Ўқтам ХУДОЙБЕРДИЕВ,
Алишер ИСРОИЛОВ (сурат).**

Pastdarg'omlik Pokiza

kelajakni yaratayotgan yoshlar safida

Yoshlar kuni munosabati bilan o'tkazilgan tantanali tadbirda pastdarg'omlik yoshlardan biri – Pokiza Nurmamatoва "Kelajak bunyodkori" medali bilan taqdirlandi. Ushbu yuksak e'tirof uning ilm-fan, ta'lim, innovatsiya sohalaridagi samarali mehnatining natijasi bo'ldi.

Pokiza Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini muvaffaqiyatli tamomlagan. 2024-yilda davlat granti asosida Samarqand davlat chet tillar institutining "Kompyuter lingvistikasi" mutaxassisligi magistraturasiga qabul qilingan. Ayni paytda u Samarqand davlat chet tillar institutining xalqaro reytinglar bilan ishlash bo'limida bosh mutaxassis sifatida faoliyat yuritmoqda. U oliy ta'lim muassasasining nufuzini oshirish, xalqaro reytinglardagi ko'rsatkichlarini yaxshilash, xorijiy hamkorliklarni kengaytirish hamda institutning strategik rivojlanish yo'nalishlarini takomillashtirishga munosib hissa qo'shib kelmogda. Pokiza xalqaro maydonda ham faol ishtirok etuvchi yosh olimlardan biri hisoblanadi. U UNESCO xalqaro sessiyalari, shuningdek, Turkiya, Rossiya, Qozog'iston, AQShda tashkil etilgan xalqaro konferensiyalar, ilmiy anjumanlar hamda rektorlar forumlarida o'zining ilmiy va innovatsion loyihalari bilan qatnashib, xalqaro ekspertlar tomonidan ijobiy baholangan.

U ingliz tilini CEFR C1 darajasida, turk tilini milliy sertifikatning B2 darajasida biladi, shuningdek, rus tilida erkin muloqot qila oladi. Xorijiy tillarni puxta bilishi uning xalqaro hamkorlik va ilmiy faoliyatini yanada samarali tashkil etishiga xizmat qilmoqda. Pokiza Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) bo'yicha mutaxassis, raqamli lingvist hamda veb-dizayner sifatida ham bir qator muvaffaqiyatlarga erishgan. Uning tashabbusi bilan 10 nafardan ortiq mutaxassisdan iborat "Kaja Games" jamoasi tashkil etilgan bo'lib, jamoa tomonidan beshta innovatsion mobil ilova ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan. Shuningdek, u IT Park Uzbekistan tomonidan Samarqand shahrida tashkil etilgan intensiv inkubatsiya dasturida ishtirok etib, o'z startap g'oyalarini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Uning "Ko'pkari" innovatsion loyihasi Game Fest 2025, ICT Week 2025 hamda President Tech Award kabi nufuzli tanlov va ko'rgazmalarda namoyish etilib, mamlakatimizda IT va kreativ industriyani



rivojlantirishga qaratilgan istiqbolli tashabbuslardan biri sifatida e'tirof etildi. Prezident tomonidan "Kelajak bunyodkori" medali bilan taqdirilanishi Pokiza Nurmamatovaning yurt taraqqiyoti, ilm-fan, innovatsiya va raqamli texnologiyalar sohasidagi xizmatlariga berilgan yuksak bahodir. - Prezidentimiz qo'ldan lini qabul qilish men uchun hayotimdagi eng unutilmas va mas'uliyatli lahzalardan biri bo'ldi, - deydi u. - Bu yuksak e'tirofni katta ishonch sifatida qabul qilaman. Mukofot na'faqat shaxsiy yutug'im, balki yurtimiz yoshlariga ko'rsatilayotgan yuksak e'tiborning yana bir yorqin ifodasidir. Men barcha yoshlarga o'z ustida tinimsiz ishlash, orzu qilishdan to'xtamaslik va Vatani ravnagiga munosib hissa qo'shishni tilayman. **To'liq SIDDIQOV.**

Joriy yilda hududlar infratuzilmasini yaxshilash, aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun sharoit yaratish maqsadida tumanlarga o'rtacha 250 milliard so'mdan, mahallalarga esa 5,5 milliard so'mdan mablag' berildi.

Tuman hokimlari va mahalla raislarining tushum bo'yicha vakolatlari kengaytirilgani natijasida hududda qoladigan qo'shimcha daromad ikki barobargacha ko'paydi. Tumanlarda o'rtacha 22 milliard so'mdan qo'shimcha mablag' qoldi, mahalla budjetiga esa o'rtacha 150-200 million so'm tushdi. Umuman, bugun hududdagi masalalarni hal qilish uchun hokimda ham, mahalla raisida ham, umuman, "yettillik"ning har bir vakilida resurs va vakolat bor. Yetishmayotgan jihat – mas'uliyat va tashabbuskorlik. Bu raqamlar va fikrlar 16-iyul kuni davlatimiz rahbari raisligida o'tkazilgan mahallalarga yangi muhit olib kirish hamda "mahalla yettilligi" faoliyatini yangicha tashkil qilishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida qayd etildi. Aytish mumkinki, mazkur yig'ilish davlatimiz rahbarining shu yil 24-iyun kuni qabul qilingan "Mahalla boshqaruvini samarali tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonining amaliy ifodasi sifatida uni amalga oshirishning mexanizmlari belgilab berilgani



bilan ahamiyatli bo'ldi.

Farmon asosida aholi muammolarini "mahalla – tuman – viloyat" tamoyili asosida hal etish mexanizmi yo'lga qo'yildi, yer va mol-mulk solig'idan mahallaga ajratiladigan ulush 10 foizdan 15 foizga yetkazildi. 5 ming kvadrat metr va undan ortiq bo'sh turgan binolarni sotishdan tushgan mablag' mahallaga qoldirilishi, sanitariya qoidalarini buzish hamda noqonuniy qurilishlar bo'yicha jarimalarning bir qismi mahallalarga yo'naltirilishi belgilandi. Yig'ilishda shu kabi muhim yangiliklar va uni amalga oshirishda e'tibor qaratish zarur bo'lgan masalalar aytiladi. Qayd etilganidek,

birgina mahalliy soliqlar evaziga mahallalarda yaxshigina mablag' qolmoqda. Jumladan, viloyatimizda mahallalar hisob-raqamiga soliqlar hisobidan 44 milliard so'm mablag' yig'ildi. Ushbu mablag'lar evaziga yilning birinchi yarmida 45 mahalla uchun yangi binolar qurildi, 15 tasi rekonstruksiya qilindi, 252 ta mahalla binolari ta'mirlandi. Barcha mahallalarda "ettillik"ning samarali ishlashi uchun sharoit yaratilib, kompyuter va boshqa zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta'minlandi. Shuningdek, mahallalar infratuzilmasi yaxshilanib, 204 kilometr salomatlik yo'laklari, 194 ta bolalar maydonchasi barpo qilindi. 482 mahallada "mahalla kutubxonasi" faoliyati yo'lga qo'yildi. "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" davlat dasturi hamda Prezidentimizning viloyatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan bir qator qarorlari asosida ajratilgan mablag'lar ham mahallalar infratuzilmasini takomillashtirish, hududda tadbirkorlikni rivojlantirish va yangi ish o'rinlari yaratish, aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Jumladan, viloyat uchun ajratilgan mablag'lar hisobidan 650 mahallada zarur yumushlar bajarilmoqda. Bu

mahallalarning har biriga o'rtacha 6,5-7 milliard so'mdan mablag' yo'naltirilgan. Masalan, "og'ir" toifada bo'lgan Qo'shrabot va Paxtachi tumanlarining har biriga 60 milliard so'mdan mablag' ajratildi. Ushbu mablag'lar hisobiga 29 kilometr ichki yo'llar va 6 ta ko'priklar ta'mirlanadi, 25 kilometr piyodalar yo'laklari quriladi, 43 kilometr elektr tarmog'i tortiladi, 46 dona transformator o'rnatiladi, 7 ta suv inshooti quriladi, 8 kilometr ichimlik suvi, 4 kilometr oqova, 12 kilometr sug'orish tarmog'i tortiladi. Moybuloq mahallasi nafaqat Kat-taqo'rg'on tumanining, balki viloyatimizning ham eng chekka va tog'li hududlaridan biri hisoblanadi. Aholining turmush sharoiti ham boshqa hududlarga qaraganda ancha og'ir. Davlatimiz rahbarining tegishli qarori bilan ushbu hududda 5 ming gektar yaylov va lalmi yerlarda pistazorlar tashkil etish uchun 20 milliard so'm ajratildi. Bu yerda 24 kilometr elektr tarmoqlari tortilib, 50 ta artezian qudug'i qaziladi, pistazorlar atrofi 10 kilometr masofada sim to'r bilan o'rallamoqda. Bugungi kunda "Jomboy Agrostar" kompaniyasi tomonidan 128 gektar yer maydoni avksion orqali xarid qilinib, yerga ishlav berish ishlari boshlandi va shu yilning o'zida 200 gektar yer maydoni

oborotga kiritiladi, 100 dan ortiq dehqon xo'jaligi tashkil qilinib, 250 nafar aholi doimiy ish bilan band qilinadi. Pista daraxtlari hosilga kirguniga qadar qator orasida dukkakli va poliz ekinlari ekilib, bu orqali har bir xonadonga yiliga qo'shimcha 20-30 million so'mgacha daromad olish imkoniyati yaratiladi. Bu yil viloyatimizdagi "og'ir" toifadagi 103 mahallaning har biriga 3 milliard so'mdan mablag' ajratildi va buning hisobiga 279 kilometr ichki yo'llarni ta'mirlash, 90 kilometr piyodalar yo'laklari qurilishi, 623 kilometr elektr tarmog'i tortilishi boshlandi. Bundan tashqari, 221 ta transformator o'rnatiladi, 22 dona suv inshooti quriladi, 86 kilometr ichimlik suvi tarmog'i tortiladi, 62 dona artezian quduqlari qaziladi. Bu chora-tadbirlar aholi turmush darajasini yuksaltirish, hududda tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlashga xizmat qiladi. Mahallalarni ixtisoslashtirish, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda mikroloiyahalar ishlab chiqish va amalga oshirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Biz bu yil 130 mahallani chuqur ixtisoslashtirib, ularning sonini 439 tadan 569 taga yetkazishni maqsad qilganmiz. Ushbu yo'nalishdagi ishlar doirasida yilning dastlabki olti oyida 2,3 ming xonadonga 39,5 milliard so'mlik imtiyozli kreditlar, 460 xonadonga 6 milliard so'mlik ssuda va subsidiyalar ajratildi. 13 ming xonadon egalari 265 milliard so'm o'z mablag'lari o'zlashtirilib, natijada 82 ta mahalla chuqur ixtisoslashtirildi. 4,1 mingta mikroloiyahani amalga

oshirish uchun 158,1 milliard so'm miqdorida kredit ajratilib, 15 ming aholi bandligi ta'minlandi. E'tiborlisi, mikroloiyahalarning 1770 tasi kambag'al oilalar ishtirokida tashkil etildi. Yig'ilishda bu yil "Yagona Vatani, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz" degan ezgu g'oya asosida keng nishonlanadigan eng ulug', eng aziz bayramni mahallalarda ko'tarinki ruhda o'tkazish uchun "Mahallada obodlik va mehr-saxovat oyli" e'lon qilindi. Ushbu tashabbus xalqimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanib, viloyatdagi mahallalarda amaliy ishlar boshlandi. Avvalo, har bir xonadon a'zolari o'z uyi atrofini, mahallasini obod etishga kirishdi. Bu bilan mahallalar obod bo'ladi, aholi o'rtasidagi hamjihatlik, mehr-oqibat mustahkamlanadi. Muhimi, bu yil bo'y i ishlaydigan umummilliy harakatga aylanadi va yil yakuni bilan ko'p qavatli uylardagi "Eng orasta xonadon", mahalladagi "Eng fayzli hovli", hududdagi "Eng obod ko'cha", tuman va viloyatdagi "Eng namunal mahalla" nominatsiyalari joriy etilib, g'oliblar taqdirlanadi, ya'ni ko'p qavatli uylardagi kvartiralar uchun mol-mulk solig'idan, hovli-joylar uchun esa yer solig'idan imtiyoz beriladi. Yaxshi tajriba yaratgan "mahalla yettilligi" ham mukofotlanadi. **Isroil JABBOROV,
O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi boshlig'i.**

► Munosabat



1991-YIL OKTABR

Amerika Qo'shma Shtatlarining Ey-Bi-Si nyuz telekompaniyasi xodimlaridan bir guruhi Samarqandda maxsus ko'rsatuv tayyorladi. Mehmonlar O'zbekiston mustaqil deb e'lon qilingandan so'ng bu yerdagi sharoit, amalga oshirilayotgan ishlar, kishilar hayoti, turmush tarzi bilan yaqindan tanishish maqsadida diyorimizga kelgan edi.

1992-YIL APREL

Samarqand muzey-qo'riqxonasi ekspонатlari birinchi marta chet elda – Fransiya da namoyish etildi.

MAY

Viloyatimizda 26-apreldan 3-maygacha tinimsiz yomg'ir yog'ishi natijasida dehqonchilikka jiddiy zarar yetdi.

AVGUST

Janubiy Koreyadagi yirik DEU korporatsiyasi raisi Kim U Jun Islom Karimov hamrohligida Samarqandga keldi.

Toyloq tumani Samarqand rayoni tarkibidan ajralib chiqdi.

SENTABR

Past Darg'om tumanida Samarqanddagi "8-mart" tikuvchilik birlashmasining filiali ochildi va 700 nafar xotin-qiz ishga joylashdi.

Payariqda konserva sexi ishga tushdi. Unda bir yilda 700 tonna sabzavot, 300 tonna meva qayta ishlanib, 1 million shartli banka konserva tayyorlanadi.

Samarqandda "Do'stlik" O'zbekiston-Xitoy qo'shma korxonasi barpo etildi.

NOYABR

Samarqanddagi "Gelion" zavodida kichik televizorlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim berish bilan birga ilmiy tadqiqotlar olib boriladi, ilmiy izlanishlar samara bersa, ularga patent olinadi. Keyingi yillarda oliy-gohlarda qanday ixtirolar yaratilgani va ularning hayotga joriy etilgani bilan qiziqdik.

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutida oxirgi bir yilda oltita ixtiroga patent olingan. Ulardan biri arpaning Bek navi bo'lib, ushbu nav hosildorligi, kasallikka chidamliligi va ertapisharliligi bilan ahamiyatli.

- Arpaning Bek navi bo'yicha 2-3 yildan beri ilmiy tadqiqotlar olib boryapmiz, o'tgan yilning avgust oyida patent oldik, - deydi institutning agrobiologiya fakulteti dekani, professor G'ulom G'aybullayev. - Institutimiz Jomboy tumanida joylashgan Yodgor Nazarov fermer xo'jaligi bilan hamkorlikda faoliyat olib boryapti. Mazkur fermer xo'jaligining 20 gektar yer maydoniga arpaning Bek navi birlamchi urug'chilik maqsadida ekildi. Shuningdek, arpaning Bek navi viloyatda 500 gektar yerga ekilgan. Ayni kunda respublika davlat Nav sinash markazida arpaning mazkur navi sinaliyapti.

Bundan tashqari, hozirgi kunda yumshoq bug'doyning "Samarqand" navi ustida ilmiy-tadqiqot ishlari olib boryapmiz. Mazkur bug'doy navi 100 gektar yerga ekilgan bo'lib, ushbu dalalardan super elita avlodli urug'lar unib chiqadi. Bu ilmiy ishlar kela-jakda el-yurt dasturxonining to'kin bo'lishiga xizmat qiladi.

Institutda nafaqat o'simlik navlari, balki ularni ekish texnologiyalari bo'yicha ham ixtirolar qilinmoqda. Institutning bir guruh olimlari "Yaylovlarni fitomelioratsiyalash usuli va uni amalga oshiruvchi qurilma"ga patent oldi.

- Qurilma yaylovlarda mavjud chim qatlamini saqlagan holda tuvakchalil ko'chatlarni avtomatik o'tqazadi, - deydi institut katta o'qituvchisi Furqat Namozov. - Bu bo'yicha "Yaylovlarni yaxshilashda ko'chat o'tqazish qurilmasi parametrlarini asoslash" mavzusida nomzodlik (PhD) dissertatsiyasini himoya qildim. Maxsus issiqxonalarda tuvakchalarga ekib o'stirilgan ko'chatlarni mazkur qurilma yerga ekib beradi. Bu qurilmani institut olimlari bilan

IXTIROLAR SAMARA beryaptimi?



bir-ga-likda ixtiro qildik. Uni Qora-ko'ichilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot institutining Nurota dala tajriba maydonida sinovdan o'tkazdik. Agar fermerlar tomonidan mazkur qurilmaga buyurtma tushsa, yasab beramiz.

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida 2025-yilda professor-o'qituvchilar tomonidan o'nta patent olingan. Ulardan biri "Engil beton tayyorlash uchun tarkib" deb nomlanadi. Xo'sh, olimlarimiz yengil beton tayyorlash uchun qanday tarkib ixtiro qildi?

- O'tgan yili ikkita patent oldim, biri "Yengil beton tayyorlash uchun tarkib",



ikkinchisi "Yengil beton olish uchun tarkib", - deydi universitet tayanch doktoranti (PhD) Sarvara Saidmurodova. - Ixtiro qilingan yengil beton tayyorlash uchun tarkib o'zimizning mahalliy xomashyodan tayyorlanadi. U mahalliyli, tan narxining arzonligi, yengil va mustahkamligi, ekologik zararsizligi hamda zilzilabardoshlik talablariga mosligi bilan xorijdan kirib kelayotgan penoblok, gazobloklardan farq qiladi. Penoblokka nisbatan mustahkam bo'lsa, gazoblokka nisbatan ekologik toza va mahalliy xomashyolardan tashkil topganligi bilan farq qiladi. Zaharli moddalar vaqt o'tishi bilan inson organizmiga ta'sir qiladi. Shuning uchun biz qurilish materiallarini tabiiy mahsulotlardan tayyorlashimiz kerak.

Hozircha ushbu ixtiro qilingan mahsulotlar Triplet Construct Solutions, JB Monolit, Sam Tex Proect kabi MChJlarda qo'llanilayapti. Yaqin yillarda ushbu tarkiblarni keng omalashtirishga harakatlar boshlangan.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida o'tgan yili 5 ta patent olingan. Ulardan biri parranda va baliqlar uchun mo'ljallangan probiotikdir.

- Ilmiy-tadqiqot ishlari bajarish doirasida 2024-2025-yillarda uchta patent olindi, - deydi universitetning parazitologiya kafedrasi dotsenti, veterinariya fanlari nomzodi Shuhrat Nasimov. - Jahon miqyosida chorvachilik va uning tarmoqlari (parrandachilik, intensiv usulda baliqchilik) kasalliklariga qarshi ishlatilayotgan antibiotiklar samaradorligi pasayib bormoqda. Sababi kasallik qo'zg'atuvchilari-mikroorganizmlarning rezistentligi (chidamliligi) antibiotiklarga qarshi ortib bormoqda. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida chorvachilik va uning tarmoqlarida tabiiy rezistentlikni oshirish maqsadida probiotiklarni qo'llash boshlangan. Kasallik chiqqanda qo'zg'atuvchi turi aniqlanib davolash ishlari amalga oshiriladi. Xuddi shunday tadbirlar respublikamizda ham amalga oshirilmoqda, faqat probiotiklar xorijdan import qilinmoqda.

Ilmiy-tadqiqot ishlari uch bosqichda olib borildi: 1-bosqich 2018-2020-yillar - xo'jalik shartnoma doirasida (universitet va xo'jalik); 2-bosqich 2021-2023-yillar - Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, innovatsion rivojlanish agentligining - innovatsion loyihasi doirasida va 3-bosqich MUNIS RCP - xalqaro loyiha doirasida.

Yaratilgan yangi "INNOPROVET" mahalliy tabiiy probiotik chorvachilik va uning tarmoqlarida (parrandachilik, intensiv baliqchilik) qo'llashda patogen va shartli patogen mikroorganizmlarga qarshi ta'sir etish, organizmning nospesifik tabiiy rezistentligini stimullash, hayvonlar yashovchanligi, ozuqa hazm qilish, moddalar almashinuvi va mahsuldorligini oshirish maqsadida qo'llashga mo'ljallangan. Bugun mazkur probiotik chorvachilik, parrandachilik, intensiv baliqchilikda qo'llanilayapti.

Yuqorida keltirilgan ixtirolarning barchasi sohadagi muammolarni kamaytirishi har bir soha rivoji uchun xizmat qilishi shubhasiz. Olimlarimizning ixtirolari tijoratlashtirilishi, ommalashishi uchun ularni qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish kerak. Bu borada ilg'or xorij tajribalarini o'rganish va hayotga joriy etish maqsadga muvofiq.

Xurshida ERNAZAROVA.

Soha mutaxassisarlari va huquqshunoslar tilida «jamiyat kushandasi», oddiy xalq esa «tanish-bilishchilik», «oshna-og'aynigarchilik» yoki shunchaki «pora» deb ataydigan korrupsiya illati har qanday davlatning ildiziga bolta uruvchi eng xavfli omildir. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ushbu illatga qarshi tizimli kurash olib borilayotgani, davlat idoralarining ochiqiligi ta'minlanayotgani hech kimga sir emas. Biroq ko'rilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, hayotimizning muayyan sohalarida yashirin iqtisodiyot va mansabni suiiste'mol qilish holatlari hamon uchrab turibdi.

Shu sababli jamiyatda adolat mezonlarini mustahkamlash, jinoyat uchun jazoning muqarrarliligini ta'minlash va korrupsiyaga qarshi murosasiz muhitni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida 3 ta kodeks va 5 ta qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning elektron reestri yuritilishi belgilangani asosiy yangiliklardan biri bo'ldi, deyish mumkin. Xo'sh, yangi qonun bilan hayotimizga yana qanday o'zgarishlar kirib kelmoqda?

«YENGILLIK» VA «IMTIYOZ» BERILMAYDI

Eng katta o'zgarish, tabiiyki, Jinoyat kodeksiga kiritildi. Bu yerda gap nafaqat jazo muddatlarini uzaytirish, balki korrupsionerlar uchun ilgari mavjud bo'lgan ayrim «yengillik» va «imtiyoz» eshiklarini butkul yopib tashlash haqida bormoqda. Aniqrog'i, 5 turdagi korrupsion jinoyatlar uchun jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirish qoidalarini qo'llanilmasligi belgilandi.

Masalan, shu paytgacha amaliyotda shunday holatlar kuzatiladi: davlatning milliardlab mablag'ini tuya qilgan shaxs qamalardi-da, jazo muddatining muayyan qismini o'tab, «xulqi namunali bo'lgani uchun» shartli ravishda muddatidan oldin ozodlikka chiqib ketaveradi. Endi bunga chek qo'yildi.

Jinoyat kodeksining 73-moddasiga kiritilgan yangi qoidalar ko'ra, o'zlashtirish yoki rastrata qilish (davlat yoki o'zganing mulkini yeyish) hamda firibgarlik uchun hukm qilingan shaxslar, agar ular sodir etgan jinoyati oqibatida yetkazilgan moddiy zararni to'liq qoplamasa, hech qanday shart bilan muddatidan oldin ozod qilinmaydi. Sodda qilib aytganda «Xalqning, davlatning pulini qaytarmasang, qamoqxonadan vaqtli chiqishni xayolingga ham keltirma».

Bundan tashqari, endi takroran yoki xavfli residivist (muqaddam shunday jinoyat bilan sudlangan) tomonidan yoxud juda ko'p miqdorda sodir etilgan pora olish, pora berish va pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatlari uchun hukm qilingan shaxslarga nisbatan jazoni shartli ravishda muddatidan oldin ozod qilish yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirish choralarini mutlaqo qo'llanilmaydi.

Bugungi kunda texnologiyalar rivojlanishi bilan firibgarlik va o'g'rilik ham raqamli ko'rinishga o'tmoqda. Shu sabab davlat mulkini o'marish (167-modda) kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanib yoki mansab mavqeyini suiiste'mol qilgan holda sodir etilsa, u avtomatik ravishda og'irroq kvalifikatsiya qilinadigan bo'ldi.

Firibgarlik (168-modda) jinoyatida ham xizmat mavqeidan foydalanib xalqni shilish yoki uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab ish tutish holatlari uchun sanksiyalarga «muayyan

Korrupsiyaga qarshi kurashda yangi bosqich

huquqdan mahrum etgan holda» degan majburiy qo'shimcha jazo kiritildi. Ya'ni, bunday odam ma'lum muddat qamali chiqqandan keyin ham uzoq vaqt davomida rahbarlik yoki moddiy javobgarlik lavozimlariga yaqinlashtirilmaydi.

FAQAT ORGAN XODIMLARI EMAS, BUTUN XALQ KURASHADI

Jinoyat kodeksida "korrupsiyaga oid jinoyatlar" tushunchasiga ta'rif berilib, unga 18 turdagi jinoyatlar kirishi belgilandi. Ya'ni, endi har bir rahbar, mutasaddi yoki oddiy davlat xizmatchisi qaysi chiziqni bosib o'tsa, to'g'ridan-to'g'ri «korrupsioner» tang'asini olishini va yuqorida aytilgan og'ir cheklolarga duch kelishini aniq biladi.

Ko'pchilik oddiy odamlar hayotida adolatsizlikka yoki poraxo'rlikka duch kelganda «Agar bu haqda tegishli joyga aytсам, o'zimga ziyon yetishi mumkin, meni tinch qo'yishmaydi, ishdan haydashadi» deb qo'rqadi. Mana shu qo'rquv va ijtimoiy sukunat korrupsiyaning "gullab-yashnashi"ga xizmat qiladi.

Yangi islohotlar doirasida Jinoyat-protsessual kodeksining 270-moddasiga to'rtinchi qism qo'shildi. Unga ko'ra, korrupsiya holatlari yoki boshqa jinoyatlar haqida xabar bergan, guvohlik berayotgan yoki illatni fosh qilishda qatnashayotgan shaxslarni himoya qilish uchun xavfsizlik choralarini qo'llash asoslari va tartibi qonunchilik bilan qat'iy belgilanishi mustahkamlandi.

Bu tizim amalda qanday ishlaydi? Davlat korrupsiya haqida xabar bergan fuqaroning shaxsiy ma'lumotlari sir saqlanishini, xizmat joyida ta'qib qilinishidan himoyalashini, zarur hollarda jismoniy xavfsizligi huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan ta'minlanishini o'z kuzatishga olmoqda.

Qisqasi, korrupsiyadan tortib, yuqori darajadagi mansabdor shaxslar orasidagi jinoyatchilikka qarshi aniq amaliy mexanizmlar belgilandi.

YANGI TIZIM YOKI ICHKARIDAN «DAVOLANADI»

Endi har bir vazirlik, idora, davlat tashkiloti yoki davlat ulushi bo'lgan yirik korxonalarda komplaens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari (ichki antikorrupsiya inspeksiya) faoliyat yuritadi. Ularning asosiy vazifasi tashkilot ichida budjet mablag'larining to'g'ri sarflanishini nazorat qilish, afillanganlik (tanish-bilishchilik) va manfaatlar to'qnashuvining oldini olishdir. Ushbu tizim xodimlari tashkilot ichida bevosita yoki bilvosita kuzatish olib borish, tekshiruvlar o'tkazish va tezkor-qidiruv organlari bilan hamkorlik qilish huquqiga ega bo'ldi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi sohada davlat siyosatini shakllantiruvchi va amalga oshiruvchi, davlat organlari, OAV va fuqarolik jamiyati institutlarining birgalikdagi faoliyatini tashkil etuvchi yagona maxsus vakolatli organ sifatida e'tirof etildi. Agentlikka davlat xizmatchilarining daromadlari va mol-mulkini, shuningdek, manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiyalash tizimini ishlab chiqish va uning ishlashini nazorat qilish kabi mas'uliyatli vazifalar yuklandi.



Endi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi har bir davlat organi va tashkilotlari, hududlar va sohalar kesimida korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini shakllantirish bilan ham shug'ullanadi.

IMMUNITET BOLALIKDAN BOSHLANADI

Qonun ijodkorlari juda to'g'ri bir haqiqatni hisobga olgan: korrupsiyani faqat qamash va jarima solish bilan tugatib bo'lmaydi. Eng muhimi insonlarning dunyoqarashini, madaniyatini o'zgartirishdir. Agar jamiyat bolalikdan, maktab davridan boshlab pora berishni irkanish, uyat va og'ir gunoh deb bilsa, kelajakda bunday jilat o'zidan o'zi ildiz ota olmaydi.

Shu sababli "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunga muhim qo'shimchalar kiritildi. Endi yoshlarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, ularda yot g'oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlash davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Maktablar, OTMlar va mahallalarda yoshlarga halollik standartlari, o'z mehnati bilan muvaffaqiyatga erishish tushunchalari tizimli ravishda singdiriladi.

HALOLLIK – YAGONA TO'G'RI YO'L

Xulosa qilib aytganda, yangi qabul qilingan qonun hujjatlari shunchaki qog'ozdagi o'zgarishlar emas. Bu jamiyatimizda uzoq yillardan beri ildiz otgan tizimli muammolarni tag-tubi bilan yo'q qilishga qaratilgan jiddiy siyosiy iroda namunasidir.

Jazoning kuchaytirilishi, yetkazilgan zararni to'lamay turib ozodlikka chiqarilmaslik qoidasi, davlat xaridlaridagi qat'iy nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlarning maqomi oshirilishi – bularning barchasi yagona maqsadga xizmat qiladi: mamlakatimizda har bir fuqaro qonun ustuvorligini va adolatni his qilishi kerak.

Yoqub MARQAYEV.

► Prezident farmoniga koʻra

Davlatning kuchi - uning qonunlarida, obroʻsi - adolatida, kelajagi esa xalqning davlatga boʻlgan ishonchida namoyon boʻladi. Inson huquq va erkinliklarini taʼminlash, jamiyatda adolat mezonlarini qaror toptirishda sud hokimiyatining oʻrni beqiyos. Biz, sudyalor, har kuni yuzlab insonlarning taqdiri, ularning dardu tashvishlari va muammolari bilan yuzma-yuz kalamiz. Sud ostonasiga qadam bosgan har bir fuqaro u yerdan faqat adolat topishni umid qiladi. Agar bu umidga ozgina putur yetsa, nafaqat sudya yoki sud xodimining, balki butun davlat tizimining obroʻsiga soya soladi.

ADOLAT

qoʻrgʻoni ishonch va poklik ustiga quriladi

Shu sababli Prezidentimiz tomonidan 2026-yil 8-iyun kuni qabul qilingan «Sudlar-da komplayens nazorat tizimi samaradorligini oshirishning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi farmoni soha xodimlari sifatida bizning ham, keng jamoatchilikning ham diqqat markazida boʻldi. Bu hujjat shunchaki navbatdagi islohot emas, balki sud tizimida korruptsiyaga qarshi eʼlon qilingan «favqulod-da holat» davrida adolat qoʻrgʻonini ich-ichi-dan tozalash, uni poklik va shaffoflik ustiga qayta qurish yoʻlidagi tarixiy qadamdir.

Farmonda aytib oʻtilganidek, sud tizimi-da korruptsiyaga qarshi kurashish boʻyicha «favqulodda holat» eʼlon qilingan. Bu nima degani? Bu - sud ostonasida hech qanday tanish-bilishchilikka, tamagirlikka yoki manfaatlarga qoʻngʻashuviga oʻrin yoʻq, deganidir.

Endi sudyalikka nomzodlarni tanlash, ularning faoliyatini baholash bilan birga, sudda ishlayotgan kotiblar, yordamchilar, devonxona xodimlarining ham halolligi birinchi oʻringa chiqmoqda. Zotan, fuqaro sudga kelganda birinchi boʻlib sudya bilan emas, balki sud apparati xodimi bilan uchrashadi. Agar oʻsha xodim fuqaroga qoʻpollik qilsa, qonunni notoʻgʻri tushuntirsa yoki boshqacha manfaatdorlik belgilarini koʻrsatsa, odamlarda «bu yerda adolat yoʻq ekan», degan notoʻgʻri fikr shakllanadi. Yangi farmon ana shu zanjirdagi nuqsonlarni bartaraf etishga qaratilgan.

Joriy yil yakuniga qadar "vacancy.sud.uz" portali hamda kadrlar maʼmurchiligi uchun "SudHR" elektron platformasi ishga tushiriladi. Bu tizimlar boʻsh ish oʻrinlarini avtomatik ravishda eʼlon qiladi va nomzodlarni halollik, maʼnaviy-axloqiy sifatlati boʻyicha saralab beradi.

Sud tizimida xizmat qilayotgan insonlarning oʻtmishi va buguni benuqson boʻlishi uchun Oliy sud tomonidan tasdiqlanadigan yangi nizomda juda qatʼiy cheklovlar belgilab qoʻyilmoqda. Jumladan, muqaddam korruptsiyaga oid jinoyat sodir etgan, deb topilgan shaxslar hech qachon sud tizimiga yaqin-



lashtirilmaydi. Sud xodimlariga tadbirkorlik bilan shugʻullanish, chet elda hisobvaraqlar ochish, koʻchmas mulkka egalik qilish, siyosiy partiyalar manfaatini koʻzlab ish tutish taqiqlanadi.

Bu cheklovlar kimgadir juda qatʼiy koʻrinishi mumkin, lekin adolat posbonlari uchun bu hayotiy zaruratdir. Agar sud xodimining oʻzi tadbirkorlik bilan shugʻullansa yoki tijoriy manfaatlari boʻlsa, u qanday qilib xolis qaror qabul qilinishiga koʻmaklasha oladi? Albatta, iloji yoʻq.

Muhim yangiliklardan yana biri - deklaratsiya tizimi. Endi sud xodimlari va ularning oila aʼzolari (turmush oʻrtogʻi va voyaga yetmagan farzandlari) oʻz daromadlari va mol-mulkini deklaratsiya qiladi.

Agar xodimga kimdir pora taklif qilsa va xodim bu haqida xabar bersa, u xalqaro standartlar asosida himoya qilinadi va ragʻbatlantiriladi. Fuqarolar uchun esa korruptsiya holatlari haqida tezkor xabar berish imkonini beruvchi xavfsiz aloqa kanallari yaratiladi.

Umuman, prezidentimizning ushbu farmoni sud tizimini Yangi Oʻzbekistonni barpo etish yoʻlidagi islohotlarning chinakam koʻmakchisiga aylantirishni maqsad qilgan.

Ulugʻbek SOTIBOLDIYEV,
fuqarolik ishlari boʻyicha Urgut tumani sudi sudyasi.

Huquqiy savodxonlik maktabdan boshlanadi

Bir kuni maktabda sodir boʻlgan bir voqea menga huquqiy tarbiyaning naqadar muhim ekanini anglatdi. Maktabning 10-sinfida oʻqiydigan bir oʻquvchi dars davomida oʻzining nooʻrin xatti-harakatlari bilan eʼtiborimni tortdi. U ayrim sinfdoshlarini haqorat qilib, ularga dagʻdagʻa aralash gapirar, dars jarayoniga xalaqit berayotgan edi. Uning ruhiy holati izdan chiqqani, asabiylashgani yaqqol sezilib turardi.

Bunday vaziyatda unga darsni buzayotganini tushuntirdim va bu holat davom etsa, maktab ichki tartib-qoidalariga muvofiq tegishli choralar koʻrilishini aytdim. Biroq oʻquvchi hali tinchlanishga tayyor emas edi. Men esa vaziyatni keskinlashtirmasdan, uni toʻgʻri yoʻlga yoʻnaltirishim zarurligini angladim. Chunki qattiq tanbeh berish yoki jahl bilan muomala qilish uning ruhiy holatini yanada ogʻirlashtirishi, darsdan keyin esa salbiy oqibatlariga sabab boʻlishi mumkin edi.

Shu sababli vaziyatdan tarbiyaviy maqsadda foydalanishga qaror qildim. Oʻquvchiga boshqa shaxsni haqorat qilish qonunchilikda maʼmuriy yoki ayrim hollarda jinoiy javobgarlikka sabab boʻlishi mumkinligini tushuntirdim. Shunday qilmish nafaqat uning oʻzi, balki ota-onasi va yaqinlariga ham tashvish keltirishi, kelajakdagi oʻqishi, kasbiy faoliyati va hayotiy maqsadlariga erishishiga salbiy taʼsir koʻrsatishini misollar orqali izohlab berdim.

Oʻsha kuni dars mavzusi "Jamiyatda inson huquqlarining oʻrni" edi. Shu bois yuzaga kelgan vaziyatni mavzu bilan bogʻlab davom ettirdim. Oʻquvchilarga jamiyat aʼzosi boʻlgan shaxsning manfaatlari baʼzan jamiyat manfaatlari bilan uygʻunlashishi, baʼzan esa ular oʻrtasida ziddiyat yuzaga kelishi mumkinligini aytdim. Agar faqat bitta shaxs manfaatini koʻzlasak, boshqa insonlarning huquqlari va manfaatlariga zarar yetishi mumkin. Aksincha, faqat ommaviy manfaatni ustun qoʻyish ham ayrim shaxslarning huquq va erkinliklari poymol boʻlishiga olib kelishi ehtimoldan xoli emas. Shu bois huquqning asosiy vazifasi shaxs va jamiyat manfaatlari oʻrtasida adolatli muvozanatni taʼminlashdan iborat ekanini taʼkidladim.



Shundan soʻng tartibni buzgan oʻquvchi ayrim sinfdoshlari uni muntazam kamsitayotganini aytdi. Vaziyatning asl sababi ana shunda maʼlum boʻldi. Men oʻquvchilarga insonning tashqi koʻrinishi, tana tuzilishi, millati, tili yoki boshqa shaxsiy xususiyatlari sababli uni kamsitish mutlaqo mumkin emasligini, bunday xatti-harakatlar insonning shaʼni va qadr-qimmatini poymol qilishini huquqiy asoslar bilan tushuntirib berdim. Inson huquqlarini hurmat qilish har qanday jamiyatning muhim qadriyatlaridan biri ekanini alohida taʼkidladim.

Mazkur voqea menga yana bir haqiqatni anglatdi: huquq fani oʻqituvchisining vazifasi faqat qonun normalarini oʻrgatish bilanгина cheklanmaydi. U oʻquvchilarda adolat tuygʻusini, boshqalarning huquq va erkinliklariga hurmat bilan munosabatda boʻlish madaniyatini ham shakllantirishi lozim. Ayrim hollarda birgina toʻgʻri tanlangan soʻz yoki huquqiy tushuntirish keskinlashayotgan nizoning oldini olib, oʻquvchini toʻgʻri xulosa chiqarishga undashi mumkin.

Oʻquvchilar oʻrtasidagi har qanday ziddiyatni adolat va qonun ustuvorligi tamoyillari asosida hal eta olganimizdagi-na taʼlim va tarbiya uygʻunligiga erishamiz. Zero, yosh avlod qalbidagi huquqiy ong va adolat tuygʻusini shakllantirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Husan SHARIPOV,
Urgut tumanidagi 81-umumiy oʻrta taʼlim maktabining oliy toifali huquq fani oʻqituvchisi.

“Oʻzenergoinspeksiya” viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan oʻtkazilgan tezkor tadbirlarda energiya resurslaridan noqonuniy foydalanish holatlari aniqlandi.

Tabiiy gazdan noqonuniy foydalanish bilan bogʻliq 51 holatda davlat manfaatlariga 16 milliard 204 million 100 ming soʻm zarar yetkazilgani maʼlum boʻldi. Elektr energiyasidan noqonuniy foydalanishning 98 holatida esa 32 milliard 348 million soʻm miqdorida zarar aniqlandi.

Jumladan, mutaxassislarimiz Samarqand shahrining Xoʻjaqishloq mahallasidagi xonadonda tashkil etilgan novvoyxona gaz hisoblagichini chetlab oʻtib, yashirin tarmoq orqali tabiiy gazdan noqonuniy foydalanganini fosh etdi. Qayta hisob-kitoblarga koʻra, ushbu

Yirik hajmda gaz oʻgʻirlanishi aniqlandi



holat davlat manfaatlariga 4 milliard 107 million soʻm yoki 1 million 369 ming kub metr tabiiy gaz miqdorida zarar yetkazgan.

Yana bir holat shaharning Qir mahal-lasida aniqlandi. Fuqaro xonadondagi novvoyxonada tabiiy gaz tarmogʻiga yashirin yoʻl orqali 2 ta tandirni noqonuniy ulab olgan. Hisob-kitoblarga koʻra, ushbu holat davlat manfaatlariga 576 million 757 ming soʻm zarar yetkazgan. Bu 174 ming 775 kub metr tabiiy gazning noqonuniy sarflanishiga teng.

Dilshod SAYPIYEV,
“Oʻzenergoinspeksiya” viloyat hududiy boshqarmasi boshligʻi.

REKLAMA, EʼLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va eʼlonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

GʻALLA YETISHTIRUVCHI SUBYEKTLAR DIQQATIGA!

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “Qishloq xoʻjaligi ekinlari urugʻchiligini yanada rivojlantirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-106-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 18-martdagi “Qishloq xoʻjaligi ekinlari urugʻchiligi sohasida “E-urugʻ” axborot tizimini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 166-sonli qarorlariga muvofiq, “E-urugʻ” axborot tizimida elektron tanlov oʻtkazilishi belgilangan.

Mazkur qarorlarga asosan 2027-yil gʻalladan sifatli urugʻliklarni yetishtiruvchi qishloq xoʻjaligi subyektlarini tanlab olish maqsadida joriy yil 15-iyuldan 5-avgustga qadar “E-urugʻ” axborot tizimi orqali tanlov oʻtkazish boʻyicha arizalar qabul qilinadi.

Tanlovda qatnashish shartlari boʻyicha tuman qishloq xoʻjaligi boʻlimi yoki “Urugʻchilikni rivojlantirish markazi” DM viloyat boshqarmasiga murojaat qilishingiz mumkin.

Murojaat uchun telefon:
(66) 233-78-80; (97) 391-46-36; (33) 710-47-47.

DAʼVOLAR BOʻLSA!

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Axmedjanov Aslamga (2017-yil 21-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy koʻchasi, 51-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Moʻminqulovich notarial idorasida marhum Nurnazarova Gulshad Namazovnaga (2025-yil 20-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda.

Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Hazratqulov Mahmud Moʻminqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur koʻchasi, 36-“A” uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasida marhum Naimov Alimjon Nasimovichga (2021-yil 1-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy koʻchasi, 12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Qodirov Ulugʻbek Tolibovich notarial idorasida marhum Ashurov Mustafoga (2013-yil 12-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Qodirov Ulugʻbek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino koʻchasi.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Toʻychiyev Nizomiddin Murod oʻgʻli notarial idorasida marhum Azizov Nuriddinga (2015-yil 17-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Toʻychiyev Nizomiddin Murod oʻgʻli notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand tumani Oʻrtashiq mahallasi.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Usmanova Parda Abdurashulovnaga (2025-yil 8-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy koʻchasi, 15-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Djurayev Shuxrat Baxodirovichga (2026-yil 8-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy koʻchasi, 15-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Mirzayeva Barno

Joʻraqulovna notarial idorasida marhum Rasulova Zulayxoga (2015-yil 17-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Mirzayeva Barno Joʻraqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso koʻchasi, 4-“A” uy.

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Pardayev Mehridin Muhiddin oʻgʻli notarial idorasida marhum Gʻofforova Nodira Xoliqovnaga (2021-yil 11-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Pardayev Mehridin Muhiddin oʻgʻli notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Narpay tumani “Alisher Navoiy” MFY, Amir Temur koʻchasi.

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Qurbonov Azizjon Roʻziyevich notarial idorasida marhum Ibragimov Elmurot Meyliyevichga (2017-yil 3-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Qurbonov Azizjon Roʻziyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Narpay tumani Oqtosh shahri, Imom Buxoriy koʻchasi.

Urgut tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Hoshimov Gʻolib Baxtiyorovich notarial idorasida marhum Shoxusenov Amanturdi Salimovichga (2018-yil 20-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Hoshimov Gʻolib Baxtiyorovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Urgut tumani Amir Temur koʻchasi, 65-uy.

BO‘LSA DILDA ERKKA OQIBAT

To‘raboy Qosimov – 1956-yilda Jomboyning Qo‘ng‘iro‘t qishlog‘ida tug‘ilgan. Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining qurilish fakultetini tamomlagan. Texnika fanlari nomzodi, dotsent.

Olim ilmiy faoliyat bilan bir qatorda badiiy ijod bilan ham shug‘ullanadi. Uning “O, bahor yellari”, “Moviy tong”, “Gullayotgan qalb”, “Muhabbat chehrasi”, “Qalbm devoni”, “Chaqin izidagi gul”, “Orzumand dil sadosi”, “Bag‘ishlov”, “Qizilqum qizg‘aldog‘i” nomli she‘riy to‘plamlari, “Tuyg‘ular tasviri”, “Malohatli ranglar jilosi”, “Hayotga muhabbat” nomli ilmiy risolalari hamda “Tasviriy san‘at va tafakkur” nomli monografiyasi chop etilgan. Ijod namunalari rus, nemis, ingliz, qoraqalpoq, qozoq tillariga tarjima qilingan.

Ijodkor olimni 70 yoshi bilan qutlab, she‘rlaridan namunalar taqdim etamiz.

ISTIQLOL QUYOSHIDAN

Guldiraydi momaqaldiroq,
Qish azobin chekkan dalada.
Illiqlik va sovuq kurashar,
Chaqmoq chaqar chaqin pallada.

Chaqmoq chaqar yorqin va tezkor,
Bulutlarning ko‘ksini yorib.
Zabtga olar momaqaldiroq
Yeru–ko‘kni tutib, o‘kirib.

Alvon tongda muqaddas Quyosh,
Tog‘lar uzra ko‘tararkan bosh,
Chekinadi zulmat va bulut,
Nur taftiga bermayin bardosh.

Hayot shunday bu dahr oro,
Kurashadi zulmat va ziyo.
Kurash bilmas har qanday elning,
Kelajagi bo‘lg‘usi qaro.

Bu shundayin bir qismat erur,
Kurashganlar chin ozod bo‘lur,
O‘z erki - chun kurashmagan el,
E‘tiqodsiz, imonsiz qolur.

Yo‘qoladi dunyodan nomi,
O‘chib ketar ajdodlar shoni.
Shuning uchun kurashgan xalqim,
To‘kilsa-da muqaddas qoni.

Hali so‘nmas guldurak, chaqin,
Ammo yorug‘ kunlar ko‘p yaqin.
O‘z erkidan kechmaydi xalqim,
El ko‘zidan chaqnarkan yolg‘in.

Nur yog‘ilsa erk quyoshidan,
Balqib tursa ko‘hna Shoshidan.
Guldiramas momaqaldiroq,
Shunda aslo xalqim boshidan.

ERK

Mittigina qushcham bor edi,
Sayrar edi kun bo‘yi chunon.
Biroq erkka juda zor edi,
Urar o‘zin qafasda har yon.

Har tarafdan qisar tor qafas,
Qutulmog‘i dushvordir illo.
Xaloskor yo‘q, yo‘qdir hamnafas,
Shunday qismat bergandir Xudo.



Donu-dundan totilar biroq,
Ko‘ngli to‘lmas, najot yo‘q axir.
Kuylab qolsa erk haqda uzoq,
Nolasidan ezilar bag‘ir.

Ozod qildim qushni qafasdan,
Tinglab, tolib dardli ovozini.
Yengil tortdim chuqur nafasdan,
Hur, sarbaland ko‘rib parvozin.

Qanotlari ustida nogoh,
Paydo bo‘ldi qirg‘iyi, tim qora.
Qotib qoldi nigohim, e voh,
Qushcha jismi bo‘lganda pora.

Kuni bo‘yi ezdi g‘am–qayg‘u,
Uni eslab yig‘ladim yum–yum.
Tunlarimdan qochdi–ku uyqu,
Boshlanganda erk haqda o‘yim.

Tutqunlikda yashashdan uzoq,
Ozodlikda o‘lgan yaxshiroq.
Erkka zorlik qildi qushni xor,
Illo erkka bo‘lmadi befarq.

Hayot qushcha parvozi yanglig‘i,
Lahzalarda totlidir faqat.
O‘tgan qaytmas, lek hayot qutlug‘i,
Bo‘lsa dilda erkka oqibat.

YOZ

Kirib qaynoq yoz, bog‘lar yashnar soz,
Pok sevgi bizga bo‘lgandek hamroz.
O‘riklar durkun, dovcha tukkan chog‘i,
Dilimda vasfing, bo‘lgandi ardog‘i.

To‘yxat o‘rnida

Yozning otashi qizdirib yuzing,
Lov–lov yonadi otashnok ko‘zimg.
So‘lim bog‘ nurga to‘lganda chunon,
Seni sevishim etgandim bayon.

Bir parcha bulut to‘lishib birdan,
Sarrin shamollar esgandi qirdan.
Yirik tomchilar sevalab bir-bir,
Jalaga do‘nib yoqqandi yomg‘ir.

Chaqmoqdan cho‘chib, yeldayin uchib,
Bag‘rimga seni olgandim quchib.
Yomg‘ir ostida cho‘mildik birga,
Dillarni chulg‘ab sehrli nurga.

Ilk yozgi yomg‘ir yodingdami yor,
Seni quchgandim o‘shanda ilk bor.
Yomg‘ir aralash ichgandim boldan,
Baxtimiz tilab yangi hiloldan.

Hamon esimda o‘shai ilk bo‘sa,
Bag‘rimga seni bosganim rosa.

BORLIQ YORISHAR

G‘o‘bdintog‘ uzra borliq yorishar,
Dala gullari nurga qorishar.
Qirlar bag‘riga yastandim bir pas,
Yorqin orzular og‘ushida mast.

Atrofim qurshab, aylanar qushlar,
Ishq haqda sayrab,
ko‘nglimni xushlar.
Chamanzor ichra bosh
qo‘ysam shundoq,
Yonoqlarimdan o‘par qizg‘aldoq.

Nur o‘ynar yal–yal ol yanog‘ida,
Kun bo‘yi yotdim gul quchog‘ida.
Men–ku yonaman ishq firog‘ida,
Sevgimni asrab gul ardog‘ida.

Oftob sirg‘alib ufqiga botar,
Gul titrog‘ida dil tongi otar.
Bu gulni sevmog‘ taqdir azaldir,
Dilimda ungan boqiy g‘azaldir.

Qalbim egallab olgan qizg‘aldoq,
She‘rlarim kabi beg‘ubor va pok.
To‘raboy QOSIMOV.



Bўlgan voqea

Оббо-о, аталадан бошқа ёзади-ган гап қолмабди-да, деб энсангиз қотмасин. Максад мутлақо бошқа. Гап овқатда, аталада эмас, атала бир фон, холос. Гап устоз-шогирд муносабатида, муаллимнинг ўз ўқувчиларига меҳр-муҳаббатда, қўнчақ-лигида, шогирдларига ғамхўрлиги, ибрат бўлишида.

Бугунги кунда қоронғи қиш кунлари, тизза бўйи қор кечиби, дарсга келмаган ўқувчининг уйига борадиган синф раҳбари кам учрайди. Наридан бора, телефонида ахборот олиши мумкин.

Бир кун туз ичган жойга қирқ кун салом бер, деган ҳикмати гап бор. Қолаверса, мактаб – бешик, ўқитувчилар эса ўша бешикни тебратувчилар. Сизу биз ана шу «бешик»дан чиққанмиз.

Мен бир фидойи, аммо камтарин ўқитувчим ҳақида гапирмоқчиман. Сўзларим шогирдлик эҳтиромни, туз ичган муқаддас масканга ҳурмат туйғуларидан иборат.

Камтар Дўстмуродов исмли ўқитувчим бор эди. Исми жисмига мос эди. Дунёдан ўтиб кетди. Аллоҳ раҳматига олган бўлсин! Мактабда ёшларга жўғрофия фанидан дарс берарди. Ўта хокисор, ўта камтар, камқўрим инсон эдилар. Мўминқобил эди дейишда бундай инсонларни. У кишини қирғиз ёзувчиси Чингиз Айтматовнинг адабий қаҳрамони Мўмин чолга ўхшатардим. Қанча камнамо бўлса, шунча меҳнатқаш, жафоқаш эди. Кейин ишлари ҳам ўта жўн, ўта одми. Ёшлиқлари қийинчилик билан кечган турмушнинг ҳамма «мушт»ларидан татиб кўрган. Вактнинг, мол-дунёнинг қадрига етарди, увол бўлишга йўл қўймасди.

Ўтган асрнинг 50-йилларида педагогик фаолиятини бошлаган. Аввал жисмоний тарбия техникумини тугатиб, қишлоқ мактабда физкультура машғулотларини ўтган. Менга бошланғичда синф раҳбари эди. Кейинчалик дорилфунуннинг тарих, жўғрофия факультетини битирган.

Аввал бошдан у кишини устоз деб ҳурмат қилганман. Камтарлиги, хокисорлиги, жўнлиги учун. Иккалаимизни яқинлаштирган қандайдир руҳий ришталар бор эди чамамда. Аввал устозу ўқувчи бўлиб, сўнгра эса бир мактабда бирга ишлаб ҳаддим сиғиб, оз-моз ҳазиллашадиган бўлдим. Дарсдан чарчаб чиққан кўларда чарчокни ёзарди бу ҳазил-мўтойибалар.

Устозни тиним билмас, дунё кезган сайёҳ деб лутф қилардим. Ваҳоланки, у киши қишлоқдан кўпам четга чиқмаган, узоқ жойларни кўрмаган, ўқиш учун шахарга борган эди, холос.

Аммо Камтар домла ўз фанини севар ва унинг асосий тамойилларини яхши билиб олганди. Айниқса, жўғрофий харитани яхши ўзлаштирган, дунё мамлакатларининг, қишлоқларнинг жойлашуви, иқлими, иқтисоди, табиати унга беш қўлдай аён эди.

Гоҳ-гоҳи, ўрни келиб қолганда, зиёфатлар, қуюқ давраларда, дастурхон столи таомларнинг мўллагидан букилай-букилай деб турганда ёки аксинча, дарсдан чарчаб, очқабикиб, қоринлар сурнай чалганда, у кишига гап ташлардим.

- Устоз! Сиз отамнинг аталасини кўп ичгансиз-а?

Устоз қулиб қўярди. Бошини иргаб, тасдиқ маъносини берарди.

- Ҳа, Қайомжон. Ўша аталанинг таъми хали-хуноз оғзимда бордай... Қани энди... айни лаҳзаларда бир қосагина бўлса...

Атала – тоза зиғир ёғга ун қўшиб қоврилиб, пиширилган суюқ таом. Мазали, тўйимли овқат, ўзбекчиликда аталани янги бўшаган аёлнинг

таоми дейишди. Аммо бошқалар ичса ҳам арзийди. Қишнинг совуқ кунлари, эрталаб бир қоса иссиқ атала ичсангиз кун бўйи бардам бўлиб юрасиз. Ҳар замоннинг ўз таоми бўларкан. Атала одамларнинг яшаш мезонига гўё ўлчов. Энди аталани ким пиширади? Шунинг учун айрим ёшлар атала, қуртова қанақа таом эканлигини билишмайдилар. Майли, улар ҳам замондан миннатдор. Эндиги ёшлар замонавий, силлиқ-кина машиналарга ўтириб, катта йўл бўйларидagi ошхоналарга боришади. Яхна, жим ёймиз дейишади.

Бир кун серҳаракат, эпил одам эди. Мен бошланғич синфларда ўқийман. Назаримда, ўша йилларда қор кўп ёғиб, қиш қаттиқ келарди. Отам эрта туриб қорни кураб, молхоналарга, сомонхоналарга йўл очарди. Онам туриб ўчоққа тезак қалайди. Баъзан отам эрталаб атала қилишни айтади. Қўпинча сўт пиширилади. Биттагина сигиримиз бор. Онам шундан бир мол товоқни силатиб сўт соғиб келарди. Оловдан қорайиб кетган катта алюмин товоққа солиб чўққа қўяди. Сўт бир неча лаҳзада телпак боғлаб пишади.

Хуллас, онам отамнинг раъйига қараб, баъзи кунлари эрталаб атала пиширади. Нега эрталаб? Бунинг сабабини мен кейинчалик билдим. Эрталаб нонуштага нон бўлмай қолади. Хамир қориб нон ёпишга кўп вақт кетади ёки ун халтаннинг таги кўриниб қолган. Шундай пайларда атала пиширилади. Унга ун оз кетади ҳам тезда тайёр бўлади. Отам раҳматли «болаларим совуқда мактабга очнаҳор кетмасин» деб атала пиширтираркан. Баъзан мактабга бормаи қолсам керак-да, камтар муаллим мени сўроқлаб уйга келарди.

Отам очикқўнғил, бағрикенг, бир бурда нони бўлса, биров билан бирга есам, дейдиган одам. Камтар муаллимни уйга киргизарди.

- Муаллим, киринг уйга, - дерди отам. - Бир исиниб олинг.

Камтар муаллим тихирлик қилса ҳам отам кистайверарди.

- Киринг, муаллим! Қайомжон кийиниб олгунча уйга кириб туринг. Кун совуқ. Аёзни қаранг.

Устоз уйга кирарди. Уй деганимиз деразасиз, икки табақали икки эшиги бор қулба. Етти болорлик. Уйнинг ўртасидан ўчоқ қовланган, келгунча мактаб тутун қишнинг учун тепадан тешик очилган. Янтоқлар осилиб туради, шифтлар қирлиниб кетган, ис босган. Печка йўқ. Ўчоққа тезак қаланган. Чарсиллаб олов ёнади. Чойдишда шақирлаб чой қайнайди. Онам сўт сузиш учун сопол қосаларни ҳозирлайди. Отам ҳам қараб турмайди. Чойнақларни чайиб чой дамлайди.

Камтар муаллим оловга қўлини тутиб исинади. Биргалаб тезда нонушта қиламиз. Иссиқ аталани пуфлаб-пуфлаб ичамиз. Отам шу аснода эски гаплардан гапирарди.

Мен эски латтадан тикилган жилд – «сумка»га ўқиб қуролларимни соламан. Бир бурда нон, бир сиқим парварда ёки туршак олишимни отам ўқтиради.

Эгнимда олача читдан қовилган пахталик чопонча. Ойша опам кенг йўл қилиб тикиб берган бахмал шалворимнинг болоғларини ичига солиб яқингинада отам Нурбулоқ поезд бекатидан отаке берган кирзовой этигимни пайтавалаб кияман.

Дастурхонга дуо ўқилгач, ҳовлига чиқамиз. Аччиқ совуқ юзларимизни чимчилайди. Қўшнларнинг болалари қўшилади. Камтар муаллим олдинда қорни тепиб бизга йўл очиб боради. Ўқитувчимиз изидан келажақ сари дадил одимлаймиз.

Қайом ТУПФОН.



STARTAP BIZGA NIMA BERADI?

Startap – inson ilmiy tafakkuri mahsuli bo‘lgan yangi g‘oyalar asosida yuzaga kelgan innovatsion mahsulotlar hamda ular asosida shakllantirilgan, jadal o‘shish va kengayishni maqsad qilgan loyihalarni majmui.

Startap o‘tgan asrda yuzaga kelgan jarayon, u oddiy biznesdan tasodifiy yangiligi, xalqaro miqyosga chiqqan olishi imkoniyati bilan farq qiladi.

Startap u yoki bu texnologiyalar jarayonini yangilash orqali yangi mahsulot olishga mo‘ljallanganligi uchun unga investitsiya jalb qilish talab etiladi. Shuni aytish kerakki, yillar davomida xalqaro miqyosda bunday loyihalarning o‘n foizigina samara bergan, chunki ular qo‘llab-quvvatlanmagan.

O‘zbekistonda esa startap

loyihalari yoshlarni katta biznesga yo‘llovchi vosita sifatida qabul qilingan va u davlat tomonidan moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Xususan, deyarli barcha oliy o‘quv yurtlarida talabalarining fanlarni o‘zlashtirishdagi innovatsion g‘oyalari, startap loyihalari ularga zamonaviy ilmlarni puxta egallash uchun imkon yaratmoqda. Chunki startap mualliflari jamiyatni eng ilg‘or bilimlar va texnologiyalar asosida rivojlantirishga qodir bo‘lgan salohiyatli kadrlar bo‘lishi talab etiladi.

Bir so‘z bilan aytganda startap O‘zbekiston yoshlarining kamolot sari harakatidagi juda katta imkoniyat hisoblanadi.

Mamayunus PARDAVEY,
iqтisod fanlari doktori,
professor.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 289 nusxada chop etildi. Buyurtma 280. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E‘LONLAR: (66) 233-91-56

BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

F.RO‘ZIBOYEV.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda